

**BUG'DOY O'SIMLIGINING ORGANIK O'G'ITLAR BILAN OZIQLANISH
ME'YORINI ANIQLASH**

Ma'rufjonov Javohirbek

Farg'ona davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: *Maqola polovchanka navli bug'doy navini organik o'g'itlar bilan oziqlanish tartiboti haqida va ularning meyorlari, qo'llash vaqti va usullari haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *o'g'it, oziqlanish, bug'doy, unumdorlik, organik o'g'it, donli ekin, go'ng, g'allachilik, begona o't, hosildorlik.*

O'g'itlar - donli ekinlar hosildorligini oshirishning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Kuzgi bug'doyga o'g'it me'yorini belgilashda olinadigan hosil miqdori, o'tmishdosh ekin, tuproq-iqlim sharoitlari hamda tuproqlarning agrokimyoviy tahlilining natijalari hisobga olinadi. O'g'itlarning o'zlashtirilishiga kuchli ta'sir ko'rsatishini hisobga olib, sug'orishga alohida e'tibor qaratiladi.

Organik o'g'itlardan foydalanish. Bug'doydan yuqori don xosili etishtirishda mineral o'g'itlar bilan bir qatorda organik o'g'itlar ham katta ahamiyatga ega. Ma'lumki, dehkanchilik qilinayotgan erlar o'z tabiiy unumdorligi-ekinlar miqdori bilan farqlanadi. Chirindi qancha ko'p bo'lsa, u tuproq shuncha unumdor hisoblanadi.

Tuproq unumdorligini oshirishning eng muhim vositalaridan biri bu almashlab ekish tizimida go'ng va boshqa organik o'g'itlardan samarali foydalanish hisoblanadi. Ayniqsa dehkanchilik intensiv tarzda rivojlanayotgan bugungi kunda organik o'g'itlarga bo'lgan talab ortib bormoqda. Organik o'g'itlar tuproq unumdorligini ko'tarish bilan bir qatorda, mineral o'g'itlar samaradorligini ham oshiradi.

Akademik D.N.Pryanishnikov bu borada shunday degan : «Mineral o'g'it ishlab chiqarish va uni qo'llanishining ortishi bilan eng asosiy o'g'itlardan biri bo'lgan go'ngning ahamiyati kamayadi deyish qo'pol xato bo'ladi. Aksincha, ma'lum darajadagi ximiyalashtirishda go'ngning ahamiyati yanada ortib boradi.»

Tuproqqa tushgan har xil organik qoldiqlar parchalanish jarayoniga uchrab ularning katta qismi oddiy mineral birikmalarga, ya'ni karbonad angidrid, suv, ammiyak, nitrat kislota va boshqa birikmalarga ajraladi. Qolgan qismi esa organik moddalarning mustahkam birikmalariga, ya'ni tuproq chirindisiga yoki gumusga aylanadi. Tuproqda mikroorganizmlarning faoliyati qanchalik yahshi bo'lsa, organik moddalarning chirindiga aylanish jarayoni shunchalik tezlashadi. Mikroorganizmlar uchun zarur bo'lgan organik qoldiklar etarli bo'lmasa-deb ta'kidlaydi I.Irnazarov (1986) ular tayyor oziq moddalar, ya'ni gumus bilan oziqlanadi. Natijada tuproqdagi gumus miqdori keskin kamayadi. Tuproq unumdorligining asosiy manbai hisoblangan gumusni yanada ko'paytirishda erga beriladigan mahalliy o'g'itlar, almashlab ekish natijasida tuproqda qolgan organik qoldiqlar alohida o'rin tutadi.

Muntazam tarzda organik o'g'itlardan foydalanish tuproq xaydalma qatlamini oziqa moddalarga boyitish bilan bir qatorda, uning barcha xususiyatlarini yaxshilaydi. Oziqa balansining kamida 40 % organik o'g'itlar xisobiga to'g'ri kelishi lozim.

G'allachilikda qo'llaniladigan asosiy organik o'g'itlarga - go'ng, parranda go'ngi, torf, turli kompostlar va yashil o'g'itlar kiradi. Organik o'g'itlar ko'pincha asosiy o'g'it sifatida shudgorlash oldidan qo'llaniladi.

Go'ng - asosiy, eng keng tarqalgan organik o'g'it xisoblanadi. Uning tarkibida o'simlik uchun zarur bo'lgan azot, fosfor, kaliy, kalsiy, magniy, temir, bor, molibden singari barcha oziqa moddalari mavjud. Go'ngdan oqilona foydalanilganda tuproqning agrofizik, agrokimyoviy, suv va havo xossalari keskin yaxshilanadi, sho'rlanish va tuproqning kislotalik darajasining, bug'doyning o'sish va rivojlanishiga, mikroorganizmlarning xayot faoliyatiga salbiy ta'siri kamayadi. Ko'p yillik ilmiy tadqiqot natijalariga ko'ra gektariga 20 tonnadan go'ng qo'llanilganda kuzgi bug'doy don hosildorligi 6-12 s/ga oshadi. Go'ng mineral o'g'itlar bilan birga qo'llanilganda samaradorlik yanada yuqori bo'ladi.

G'allachilikda go'ng asosan kuzda shudgor oldidan, ekish oldidan va o'suv davri davomida sharbat oqizish tarzida qo'llaniladi. Organik o'g'itlar me'yori tuproq unumdorligi, organik o'g'it zahirasi, hamda o'simlikning ehtiyojiga qarab belgilanadi. Respublikamizning sug'oriladigan erlarida kuzgi bug'doy uchun organik o'g'itlar, jumladan chorva hayvonlari go'ngining qo'llash me'yori 15-20 t/ga sifatida belgilangan. Eroziyaga moyil, unumdorligi past erlarda go'ngning me'yori 25-30 t/ga sifatida belgilash maqsadga muvofiq. Lekin hozirgi paytda O'zbekiston sharoitida organik o'g'itlar zahirasi nazardan chetda qoldirmaslik lozim.

Go'ngdan chirimagan xo'l holda va chirigan holatda fodalanihimiz mumkin. G'allachilikda chorva xayvonlari go'ngi shudgor oldidan, ekishdan oldin to'shama sifatida va o'suv davri davomida sug'orish bilan birga sharbat sifatida qo'llaniladi. Shuningdek go'ng qimmatli organik o'g'it hisoblangan kompost tayyorlashda ishlatiladi.

Go'ngning samaradorligi shudgorlash oldidan solinganda va mineral o'g'itlar bilan birgalikda qo'llanilganda yuqori bo'ladi. Chunki go'ng tarkibida qimmatli makro va mikro elementlar bilan bir qatorda ma'lum miqdorda begona o'tlarning urug'lari ham saqlanadi, organik o'g'itlar yuza solinganda yoki sharbat sifatida qo'llanilganda bu urug'larning jonlanishi va begona o'tlarning ko'payib ketishi kuzatiladi. Begona o'tlar ko'payishining oldini olish va organik o'g'itlar samaradorligini oshirish uchun go'ng shudgor oldidan solinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Atoev B.Q. Kuzgi bug'doy navlarining tuproq sharoiti va mineral o'g'itlarga munosabati. O'zbekiston tuproqshunoslar va agrokimyogarlar jamiyatining IV qurultoy materillari. Toshkent, 2005 yil.241-243 bet.

2. Atoev B.Q. va boshqalar. Kuzgi bug'doy naychalanishining o'g'itga bog'liqligi. O'zbekiston Biologiya jurnali. 2013 yil.49-51 bet.
3. Artikova G.K. Azotli o'g'itlarni qo'llash muddatlariga bog'lik holda kuzgi bug'doyning azot, fosfor va kaliyni o'zlashtirilishi va azotni foydalanish koefitsienti. O'zbekiston tuproqshunoslar va agrokimyogarlari jamiyatining V qurultoy materillari. Toshkent, 2010 yil.199-202 bet.
4. Sotiboldiyeva G, Ma'rufjonov J, Solijonova D, Toshpo'latova Y. Kaliliy o'g'it konlari va uning ahamiyati. "Modern Science and Scientific Studies" 91-93 b
5. Sotiboldiyeva, G., Abdukhakimova, K., & Niyozov, Q. (2021). About digital mapping of biomicroelements: <https://doi.org/10.47100/conferences.v1i1.1366>. In RESEARCH SUPPORT CENTER CONFERENCES (No. 18.06).
6. Сотиболдиева, Г. Т. (2018). Фаргона вилояти кольматажланган тупрокларининг биогеокимёвий хусусиятлари ва улардан фойдаланиш: дисс. Автореф. б. ф. ф. д.(PhD)-Т.
7. Iminchayev R.A Jo'rayeva M.M, Ismoilov M.I, Ma'rufjonov J.G' Farg'ona vodiysi sharoitida "Polovchanka" bug'doy navini oziqlanish tartibotining iqtisodiy samaradorligi «Science and innovation»
8. J.Ma'rufjonov, Solijonova D, G'iyosova Sh, Abdullayeva M (2023) Mikroelementlar va mikroo'g'itlarning qo'llanilishi. Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari
9. Исаков, В. Ю., & Иминчаев, Р. А. (2023). ВОДНО-ФИЗИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА ГИПСОНОСНЫХ ПОЧВ ЮЖНОЙ ФЕРГАНЫ. Science and innovation, 2(Special Issue 6), 748-753.
10. Иминчаев, Р. А. (2023). ЎСИМЛИК ҚОЛДИҚЛАРИДАН НОАНЪАНАВИЙ ЎЎИТ ТАЙЁРЛАШ УСУЛЛАРИ ВА ШАРОИТЛАРИ. Educational Research in Universal Sciences, 2(12), 310-314.
11. Iminchayev, R. (2022). THE NUTRITION REGIME OF THE POLOVCHANKA WHEAT VARIETY IN THE SOIL CONDITIONS OF THE SOUTHERN FERGHANA DISTRICT. Oriental Journal of Agriculture, 2(01), 11-18.
12. Rakhmatjon, I. (2022). MORAL, EDUCATIONAL SIGNIFICANCE OF ACQUAINTANCE OF STUDENT-YOUTH WITH NATURE. Research Focus, 1(4), 287-290.
13. Teshaboev, N., Mukimov, Z., Iminchayev, R., & Muhammadjonova, S. (2021). EFFECTS OF DEEP TILLAGE OF COTTON ROWS ON COTTON YIELD: <https://doi.org/10.47100/conferences.v1i1.1348>. In RESEARCH SUPPORT CENTER CONFERENCES (No. 18.06).
14. Ikromjonovich, T. N., Alijonovich, M. Z., & Ahmadovich, I. R. EFFECTS OF DEEP TILLAGE OF COTTON ROWS ON COTTON YIELD.
15. Tolibjonovna, S. G. Z., & Axmadovich, I. R. (2023, November). KOLMATAJLANGAN YERLARDA BEDANI TUPROQ UNUMDORLIGIGA TA'SIRI. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE (Vol. 2, No. 18, pp. 54-58).

16. Tolibjonovna, S. G. Z., & Axmadovich, I. R. (2023). SO 'X, ISFAYRAMSOY SOHILLARI VA KONUS YOYILMALARI AVTOMORF SUG 'ORILADIGAN KOLMATAJLANGAN TUPROQLARIGA TAVSIF. IJODKOR O'QITUVCHI, 3(33), 230-235.